

QO'L GILAMI UCHUN XOMASHYO TAYYORLASH

M.Mamatalieva

Talaba

N.B.Yusupova

dotsent

P.S. Siddiqov

professor Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Maqolada xalq amaliy san'at turlaridan biri bo'lgan taqir gilam ishlab chiqarishda mahalliy xomashyodan ip tayyorlash jarayonlari ketma ketligi, naqsh ornamentlarini tushirish, taqir gilamni ishlab chiqarish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

Аннотация: *В статье представлена информация о последовательности процессов получения пряжи из местного сырья, сведения по совершенствованию узорных орнаментов при производстве безворсовых ковров одного из видов народного прикладного искусства.*

Annotation: *The article presents information on the sequence of processes for obtaining yarn from local raw materials, information on the improvement of patterned ornaments in the production of lint-free carpets of one of the types of folk applied art.*

Mamlakatimizda milliy hunarmandchilik, xalq amaliy san'atini, shu jumladan tarixiy an'analarimizni o'zida mujassam etgan, ota-bobolarimizdan qadimiy meros bo'lib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ipak va jundan qo'lda gilam to'qish sohasini rivojlantirish va noyob san'at asari hisoblanadigan ushbu gilamlarni bozor talablariga uyg'unlashtirish, band bo'lmagan aholini, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni mazkur sohaga keng jalb etish orqali ularning ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida «Respublikada qo'lda to'qilgan gilamchilik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Prezident qarori (PQ-4759-son, 26.06.2020 y.) qabul qilindi [1].

O'zbek "Gilamchilik amaliy san'ati" xalq amaliy bezak san'ati turiga kirib, ko'p asrlik milliy an'ana bo'lib uzoq tarixni o'z ichiga oladi. Gilam to'qish badiiy to'qish hunariga kiradi. O'rta Osiyoda qadimdan ayollar o'rtasida keng tarqalgan hunar sifatida mashhur bo'lgan.

Mamlakatimizda milliy hunarmandchilik, xalq amaliy san'atini, shu jumladan tarixiy an'analarimizni o'zida mujassam etgan, ota-bobolarimizdan qadimiy meros bo'lib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ipak va jundan qo'lda gilam to'qish sohasini rivojlantirish va noyob san'at asari hisoblanadigan ushbu gilamlarni bozor talablariga uyg'unlashtirish, band bo'lmagan aholini, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni mazkur sohaga keng jalb etish orqali ularning ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida ishlar qilinmoqda.

Halq amaliy bezak gilamdo'zlik san'atining muhim turlaridan biri bu taqir gilamlar sanaladi. Qo'l gilamlari ishlab chiqarishda asosiy xomashyo jun, paxta, kanop iplaridan ko'proq foydalanilganligidan kelib chiqib, maqolada asosiy e'tibor jun ipini tayyorlash jarayoni ketma-ketligiga e'tibor qaratildi.

Gilam to'qish san'ati qadimdan ko'chmanchi chorvadorlar va qabilalar orasida shakllangan, taraqqiy etgan. Chunki gilamning dastlabki namunalari hayvon junlardan tayyorlangan. Uni to'qish uchun xonakilashtirilgan hayvonlar: qo'y, echki, tuya junlaridan foydalanilgan. Quyidagi rasmda jun mahsulotini gilamchilikka tayyorlash texnologik ketma ketligi keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Tanda va arqoq iplarini tayyorlash jarayoni ketma ketligi.

Jun qirqilgandan so'ng mahsus moslama, ya'ni juntaroqlarda tozalangan. Yuvi quritilgan iplarni paralelashtirilgan. Shakllangan pilta urchuqqa taxlab cho'zilgan. Buram berilgan iplar zamin tanda ipi uchun kalavaga o'ralgandan so'ng qayta qo'shib buram berilgan, arqoq iplari esa dastlabki buram holatida qoldirilgan[2].

Turli xil o'simliklardan olingan tabiiy ranglar bilan bo'yalgandan keyin xonadon sohiblari tomonidan gilamlar to'qilgan. Tabiiy ishlov berilganligi sababli, gilamlar o'z rangini va sifatini uzoq vaqt yo'qotmagan.

Gilam to'qish uchun maxsus qurilmadan foydalanishgan, bular hozirgi kunda tog'li qishloqlarda saqlanib qolgan bo'lib, adorg'a, kizuv, qilich, suruv, arqon deb nomlanadi.

Taqir gilamlar oddiy tanda bo'yicha yo'l-yo'l naqshli yoki arqoq bo'yicha yo'l-yo'l naqshli bo'lishi mumkin. Yigirilgan iplar kalavalanadi- har xil ranglarga dastur asosida bo'yaladi va doira shaklidagi o'ramaga o'raladi, so'ngra shu o'ramadan maner tandalash amalga oshirilib, qo'l to'quv dastgohida to'qiladi[3]. Ma'lumki, gilam mahsulotlarini jozibali, sifatli chiqishi uni ishlab chiqararishda qo'llaniladigan xomashyo sifatli va dastgoh jihozlari soz bo'lishi kerak. Quyidagi 2 rasmda qo'l gilam to'qish dastgohi keltirilgan.

Taqir o'zbek dekorativ-manzarali, ziynat berilgan gilamlarini ishlab chiqarishda tanda, arqoq iplarini polotno o'rilishida, naqshlar rangli arqoq iplarini qo'llash hisobiga hosil qilinadi. Arqoq bo'yicha yo'l- yo'l to'qimalar rangli arqoq iplarining hisobiga hosil qilinadi, bunda tanda iplari bir xildagi rangda bo'ladi. Bunday to'qimalar asosan "O'rmak" da to'qiladi. O'rmakda taqir gilam to'qishda arqoq iplarini xomuzaga tashlashda oddiy cho'pga arqoq iplarini o'rab maxsus o'rama tayyorlashadi, bu o'rama moki va naycha vazifasini o'taydi.

2-rasm. Qo'l to'quv dastgohida arqoq bo'yicha yo'l-yo'l to'qima shakllanishi.

Arqoq iplarini zichligi tanda iplarinigiga nisbatan yuqori bo'lganligi uchun, tanda iplari taqir gilam sirtida ko'rinmaydigan holatda bo'ladi[4].

$T_t = 952$ teks; $T_a = 1351$ teks iplaridan foydalanilgan holatda qo'l gilami ishlab chiqarildi.

1. Gilamaning tanda va arqoq bo'yicha 1 dmdagi haqiqiy zichligi

$$P_t = 81 \frac{ip}{dm}; \quad P_a = 18 \frac{ip}{dm}$$

2. Tanda ipiga sarf bo'ladigan ip og'irligi.

$$M_{z,t} = T_t * L_{tu} * n_t / (1 - a / 100) / 10^6 = 952 * 296 * 81 * 10^3 / (1 - 9 / 100) / 10^6 = 191,07 \text{ gr.}$$

3. Arqoq ipining og'irligi.

$$M_a = T_a * L_a * P_a / 10^6 = 1351 * 10 * 18 / 10^3 = 143,180 \text{ gr}$$

4. 1 ta qo'l gilamning umumiy og'irligi:

$$191,07 + 143,180 = 334,25 \text{ gr}$$

Gilam ishlab chiqarish texnologiyasi bezakning xususiyatini belgilaydi. Naqsh konvo qog'oziga tushiriladi. Har bir qog'ozdagi katak gorizontal qatordagisi bir juft tanda iplarini va vertikal qatordagisi esa uchta qator arqoq iplarini namoyish etadi. Bundan tashqari, har bir qatorning chekkasida tanda iplariga paralel ko'ndalangiga o'rilgan milk iplari mavjud. Milk iplari gilam mahsulotidagi milk eniga qarab 2 tadan 6 tagacha ipni tashkil qiladi.

Hozirda qo'l gilam to'qish uchun ishlatiladigan mahsulot 100% jundan bo'lib, bunda hozirda yurtimizda boqilayotgan qo'ylardan olinmoqda. Hozirda qirqim jarayonida qo'ylardan olingan junlar chiqindiga chiqarilib foydalanishsiz qolmoqda. Sababi bu junlar dag'al bo'lib mayin tola olish qiyin hisoblanadi, boshqa tarafdin jun mahsulotlarining inson salomatligiga, atrof muhitga hammda iqtisodiyotga foydalarini hisobga olib qo'y junining gilamchilik sohasiga qaytarish asosiy vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «Respublikada qo'lda to'qilgan gilamchilik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Prezident qarori . PQ-4759-son, 26.06.2020 y.

2. N.B.Yusupova., Nazarova D.T., Khamrayeva S.A., Valiyeva Z.F. Evaluation of the Structure the Costume Fabric over its Surface // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. ISSN: 2350-0328 Indiya, 2018, t. 6738-6742

3. O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati. Mehnat. Toshkent. 1991. –b. 334-335.

4. Yusupova N.B., Xamraeva S.A. The Importance of the extension tool in reducing the inequality of yarn //The American of Journal Engineering and Technology, 2020, 5.32, 39-44.